

ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИ О'ҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДКОРЛИК КОМПИТЕНСИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСЛУБЛАРИ

*О'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg'ona akademik litsey ingliz tili fani oliy toifali o'qituvchisi
Maxmudova Dilshodaxon Ismoilovna*

Аннотатсия: Ushbu maqolada ta'lim muassasalari o'quvchilarida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning ba'zi bir uslublari tahlil qilingan. O'quvchi shaxsiyatining shakllanish jarayonida kompetentlikning yuzaga chiqishi bilan bog'liq masalalar tahlilga tortilgan. Mustaqil fikrlashga chorlovchi barcha texnologiyalar pedagogikaning bosh omilidir. Mustaqil fikrlash jamiyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zero, Konstitutsiyamizning 12-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Калит so'zlar: pedagogik texnologiyalar, ta'lim metodlari, ta'lim muassasalari, o'quvchi, tadqiqotchi, musiqiy pantomima.

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitishning innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash asosida o'quvchilarning ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish hozirgi sharoitda uning qanchalik subyektiv realligi sifatleri asosida talqin etiladi. Interfaol ta'lim jarayoni reproduktiv xarakterdagi an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tarzda vujudga keldi. Uning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yo'nalganligidadir. Uning e'tiborga molik jihatlari ham aynan mana shunda. Biz quyida bildirilgan fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mavzuni qisqacha bo'lsa-da yoritgan bo'lamiz.

Muayyan maqsadga erishishdagi qo'llanilgan tadbirlar va choralar majmui usul deb atalib, ularning tizimi esa uslub (metod) deb ataladi. Metod (yunoncha —metodos) – biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonida qanday qo'llash mumkinligi haqida juda ko'p olimlar, tadqiqotchilar o'z fikr- mulohazalarini bildirganlar.

O'qitish metodi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari ularning ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda, musiqiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirishda pedagog - o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan usullar majmuidir.

D.A.Karimovanning fikricha, o'qitish metodlarining quyidagi turlari mavjud: musiqa o'qitishning og'zaki metodlari; ko'rgazmali o'qitish metodlari; amaliy o'qitish metodlari; o'yin metodlari; taqqoslash metodlari va h.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyatlari haqida S.A.Madiyarova, E.U.Eshchanov quyidagi fikrlarni bayon qilganlar: o'quvchini dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish; ularni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash; o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish; pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkillanishi.

O'rganishlarimiz jarayonida tadqiqotchilar L.N.Vavilova va T.S.Vaninalar fikrlarini o'rgandik, ular interfaol ta'limning samarali jihatlarini quyidagicha baholaydilar:

1. Interfaol ta'lim o'quvchilardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni aniq vaziyatlarda qo'llay olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

2. Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

3. Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlil qilish, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga xurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish sifatleri bu pedagog va o'quvchi o'rtasida hamkorlikda amalga oshiriluvchi jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi va biz bu jarayonni jadval asosida yoritishga harakat qildik. Umumiy o'rta talim maktablari o'quvchilarida ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib topganligiga bog'liq. Muayyan pedagogik va psixologik muhitda o'quvchilar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar va bu haqida ijodiy fikrlay boshlaydilar. Buning natijasida esa ularning bilish faoliyatlari maqsadli yo'naltiriladi. Bu jarayonda bilish jarayonida bevosita muhim o'rin tutuvchi metodlarning ham o'zni beqiyos.

Bugungi ta'lim jarayoni kreativ fikrlovchi pedagogiga va o'quvchisiga ega. Ularning o'zaro hamjihatlikda tashkillaydigan suhbat, debat, amaliy mashg'ulot jarayonlari borki, barchasi interfaol darslarni tashkil etadi. Bu esa yurtimiz kelajagi bo'lmish yoshlarimizni erkin va mustaqil qarorlar qabul qila oladigan ma'nan yetuk bo'lib kamol topishlariga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi huzurida Multimedia umumta‘lim dasturlarini rivojlantirish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘rsida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 110-son qarori. 2006 yil 7 iyun. // www.lex.uz.
2. Абдуллин Э. О начальном этапе музыкального обучения в общеобразовательных школах Японии // Музыкальное воспитание в школе. – Вып. 9. – М., 1984.
3. Berdieva O. Ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta‘limi. – T., 2003. –№ 1. – B. 104.
4. M.O.Tokhirjonovna. [VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN](#). Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
5. M.O.Tokhirjonovna. Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
6. O.Maxmudova. [СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ](#). Science and innovation 1 (B6), 171-176
7. O.T.Maxmudova. [TURKIY SO‘ZLARDA O‘ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI](#). Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54